



FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 9-iyul

155-11-163-Q/25

Farg'ona tumani hokimligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PQ-184-son qarori hamda Farg'ona viloyati hokimining 2025-yil 23-may kungi 281-11-0-Q/25-sonli qarori ijrosi haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O'zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-son Farmoni ijrosini ta’minlash, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ushbu yo‘nalishda davlat organlarining fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o‘zaro hamkorlikdagi sa’iy-harakatlarini hamda O'zbekiston ekologik partiyasining fuqarolar ekologik bilimlarini oshirishga qaratilgan tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-184-son qarori hamda Farg'ona viloyati hokimining 2025-yil 23-may kungi 281-11-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati” to‘g‘risidagi 6,25- moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-184-son qarori hamda Farg'ona viloyati hokimining 2025-yil 23-may kungi 281-11-0-Q/25-sonli qarorlari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu qaroriga muvofiq:

2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiysi (keyingi o‘rinlarda - Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq;

2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini 2025-2026-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” (keyingi o‘rinlarda - “yo‘l xaritasi”) 2-ilovaga muvofiq;

d) 2030-yilgacha bo‘lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini qabul qilishdan kutilayotgan maqsadli ko‘rsatkichlar (indikatorlar) (keyingi o‘rnarda - maqsadli ko‘rsatkichlar (indikatorlar) 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

quyidagilar:

- a) Konsepsiya 2027-yildan boshlab Vazirlar Mahkamasi tomonidan har ikki yil muddatga tasdiqlanadigan alohida “yo‘l xaritasi” asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi;
- b) davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining ekologik bilimini oshirishga qaratilgan bepul o‘quv kurslari tashkil etilishi;
- d) davlat organlari va tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan ekologik madaniyatni yuksaltirish bilan bog‘liq loyihalarni amalga oshirish uchun nodavlat notijorat tashkilotlarga qonunchilikda belgilangan tartibda har yili to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnoma tuzish yo‘li bilan davlat ijtimoiy buyurtmasi berilishi;
- e) Konsepsiya va “yo‘l xaritasi”da belgilangan chora-tadbirlarning o‘z vaqtida hamda samarali amalga oshirilishi, maqsadli ko‘rsatkichlarga (indikatorlarga) erishilishi ekologiya, iqlim o‘zgarishi, o‘rmon xo‘jaligi va turizm sohasidagi vazirlik va idoralar faoliyatining 2025-yil va undan keyingi yillar uchun eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlarida (KPI) inobatga olinishi;
- f) fuqarolik jamiyati institutlari, olimlar, mutaxassislar, xorijiy ekspertlar Konsepsiya va “yo‘l xaritasi”ni samarali amalga oshirishda keng jalb qilinishi belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish sohasida muvofiqlashtiruvchi davlat organi etib belgilansin.

4. Tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi (U.Toshbekov)ga quyidagi qo‘srimcha vazifalar yuklatilsin:

- a) yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mustahkamlangan har kimning qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risida ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish choralarini ko‘rish;
 - b) ilg‘or xorijiy tajriba asosida ekologik ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish choralarini ko‘rish, ushbu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab quvvatlash;
- jamiyatda yuksak ekologik madaniyatni shakllantirish bo‘yicha targ‘ibotning innovatsion usullarini joriy etish, bunda raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan keng foydalananish;

aholining ekologik madaniyatini shakllantirish va yuksaltirishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish, ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda jamoatchilik nazorati mexanizmlarini takomillashtirish choralarini ko‘rish.

5. Tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi (U.Toshbekov), tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (Sh.Yuldashev), O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi (D.Xomidov), Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (M.Alijonov) bilan birgalikda 2025-yildan boshlab har yili quyidagilarni:

aholining turli qatlamlari, talabalar va o‘quvchi-yoshlar o‘rtasida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida “Yangi daraxt - yangi nafas” tuman eko championati; har oyda bir marotaba “Mahallani chiqindidan holi hududga aylantiramiz” shiori ostida aksiyalar, tashviqot tadbirlarini amalga oshirib borsin.

6. 2025-yil 1-avgustdan boshlab shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq Davlat ekologik nazorat inspeksiysi davlat inspektorlari quyidagi holatlar aniqlanganda tezkor nazorat tadbirlarini tekshiruvlar boshlangandan so‘ng yigirma to‘rt soat ichida “Yagona davlat nazorati” axborot tizimida ro‘yxatga olish orqali Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakilni xabardor etish tartibida amalga oshiradi:

a) yuridik shaxslarning o‘z hududida binolarni, inshootlarni yoki boshqa obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish chog‘ida belgilangan talablarni buzib, kimyoviy, biologik vositalarni qo‘llagan holda daraxtlarni, butalarni yoki boshqa o‘simgulkarni qasddan shikastlantirish, payhon qilish yoki yo‘q qilish;

b) o‘lchami besh yuz kvadrat metr va undan ortiq bo‘lgan qurilish maydonida, unga tutash bo‘lgan hududda hamda undan chiqish yo‘llarida chang va qum zarrachalarining havoga ko‘tarilishini bartaraf etishga doir majburiy talablarni buzish yoxud ushbu hududlarda ifloslantiruvchi moddalarning yo‘l qo‘yiladigan doiradagi normativlardan ortiq darajada atmosfera havosiga chiqarilishiga yo‘l qo‘yish;

d) yarim erkin sharoitlarda, sun‘iy yaratilgan yashash muhitida yoki tutqunlikda saqlanishi taqiqlangan yovvoyi hayvonlarni saqlash.

7. Xalq deputatlari tuman Kengashiga tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi boshlig‘i hamda tegishli korxona va tashkilotlar rahbarlarining aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasi, shuningdek, hududlarda atrof-muhitning holati haqidagi hisobotlarini har yili eshitib borish tavsiya etilsin.

8. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Ergashev) ommaviy axborot vositalarida muntazam ravishda targ‘ibot ishlarini olib borsin:

- a) ekologik mavzularni tizimli va tahliliy yoritib borish hamda aholini ekologik qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalashga doir chiqishlar ko'laming kengaytirilishini;
- b) Konsepsiya va "yo'l xaritasi"ni amalga oshirish natijalarining ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, internet tarmog'ida va ijtimoiy tarmoqlarda keng sharhlab borilishini hamda ularning mazmun-mohiyati jamoatchilikka tushuntirilishini;
- d) Konsepsiya va "yo'l xaritasi" doirasida amalga oshirilayotgan barcha tadbirlarning ijrosi va natijalari to'g'risida xolis va to'liq ma'lumotlar aholiga tezkorlik bilan yetkazilishi tavsiya etilsin.

9. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib tuman hokimining o'rinosi M.Qodirxonov va Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limi boshlig'i U.Toshbekov belgilansin.

10. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Farg'onha tuman hokimi



Inomov X.T